

**SCHOLAR ZOHID KAVSARI: LIFE AND SCIENTIFIC HERITAGE*****Boburshoh Xabibidinov***

*International Islamic Academy of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Düzce, Hasan Hilmi, Rushdiyya, Hojihasan, Hashawiyya.

Received: 16.09.25

Accepted: 17.09.25

Published: 18.09.25

Abstract: This article explores the life and scholarly contributions of Zahid al-Kawthari, a prominent figure of Islamic scholarship in the last century. A significant portion of al-Kawthari's intellectual legacy is dedicated to writing refutations against the rising trend of anti-madhhab (non-school-based) ideologies that were gradually spreading in certain regions during his time. In addition to this, the scholar was also actively engaged in various other branches of Islamic sciences, leaving a lasting impact through his multifaceted academic work.

ALLOMA ZOHID KAVSARIY HAYOTI VA UNING ILMIY MEROXI***Boburshoh Xabibidinov***

*O'zbekistob xalqaro Islomshunoslik akademiyasi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Duzja, Hasan Hilmiy, Rushdiya, Hojihasan, Hashaviya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'tgan asrda yashagan islam ilmi vakillaridan biri Zohid Kavsariyning hayoti va uning ilmiy faoliyati haqida fikrlar yuritiladi. Alloma Zohid Kavsariyning ijodiyotining katta qismi o'sha davrda ayrim mintaqalarda asta-sekin tarqalib borayotgan mazhabiszilik g'oyalariga qarshi raddiya asarlari yozishdan iborat bo'ladi. Alloma bundan tashqari islam ilmlarinig boshqa tarmoqlarida ham samarali faoliyat olib borgan.

УЧЁНЫЙ ЗАХИД КАВСАРИЙ: ЖИЗНЬ И НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ***Бобуршиох Хабибидинов***

*Международная исламоведческая академия Узбекистана
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Дюздже, Хасан
Хильмий, Рушдия, Ходжихасан, Хашавия.

Аннотация: В данной статье

рассматриваются жизнь и научная деятельность одного из выдающихся представителей исламской науки прошлого столетия — Зохида Кавсари. Значительная часть научного наследия ученого посвящена написанию опровержений против идей безмазхабности, которые в тот период постепенно распространялись в отдельных регионах. Помимо этого, Зохид Кавсари также проявил себя как плодотворный исследователь в других областях исламских наук, внесший заметный вклад в развитие религиозного знания.

Kirish. Muhammad Zohid Kavsariy 1879-yil 16-sentyabrda Turkiyaning Duzja viloyati Hojihasan qishlog’ida tug’ilgan. Uning kelib chiqishi cherkes oilasiga mansub bo‘lgan. Otasi Hasan Hilmiy afandi 1831-yil Kavkazning Shabzarida tug’ilgan bo‘lib, mudarris sifatida faoliyat ko‘rsatgan. U 1863-yil Kavkazning Chor imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida oilasi va talabalari bilan birqalikda Duzja viloyatiga ko‘chib o‘tib, u yerda o‘z nomiga qo‘yilgan Hojihasan qishlog’iga joylashgan. U yerda naqshbandiya tariqati xalifalaridan shayx Davlatga qo‘l berib, o‘zi ham 1865-yil xalifalik rutbasiga erishgan. 1867-yildan Hojihasan qishlog’idagi madrasada ish faoliyatini boshlagan. 1870-yil Istanbul shahriga borib, u yerda Ahmad Ziyovuddin Kumushxonaviyning darslarida qatnashib, undan “Daloil al-xayrot” asari bo‘yicha ijoza olgan. Keyingi yil esa Hijozga borib, u yerda naqshiy shayxlaridan Muso Makkiy bilan uchrashib, undan xilofat ijozasini olgan. Duzjaga qaytib kelgach, Hasan Hilmiy afandi madrasada talabalarga dars berish bilan shug’ullanib, 1926-yil, qariyb yuz yoshda vafot etgan.

Uslugular. Tadqiqot ishining yoritilish jarayonida, shuningdek, uning metodologik poydevorini shakllantirish va konseptual asoslarini belgilashda zamonaviy tarixiy tadqiqot metodlari asosiy mezon sifatida tanlab olindi. Jumladan, tarixiy voqeliklarga ilmiy yondashishda bosqichma-bosqichlik (tadrijiylik) hamda ilmiy asoslanganlik tamoyillariga amal qilindi. Ushbu tamoyillar tadqiqotning ilmiy ishonchlilikini ta’minalash bilan birga, tarixiy jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligini aniqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida turli davrlarga oid yozma manbalar, ilgari chop etilgan ilmiy adabiyotlar keng ko‘lamda jalg qilindi. Ushbu manbalarni o‘rganish va ilmiy muomalaga kiritish chog‘ida ularning tarixiy kontekstdagi o‘rni, mazmuniy yo‘nalishi va ilmiy qiymati chuqur tahlil qilinib, tizimlashtirildi. Natijada, mavjud ma’lumotlar asosida umumlashtirilgan xulosalar ishlab chiqildi va tadqiqot mavzusiga oid yangi ilmiy qarashlar ilgari surildi.

Mazkur yondashuv tadqiqot ishining nafaqat metodologik mustahkamligini ta'minlashga, balki o'rganilayotgan tarixiy hodisalarни kompleks tahlil etish orqali ularni har tomonlama yoritishga xizmat qildi.

Natijalar. O'zbekistonlik tadqiqotchilar orasida Muhammad Zohid al-Kavsariy faoliyatiga nisbatan yondashuv, asosan, uning islomiy merosdagi tutgan o'rnini aniqlash, hanafiy-moturidiy ilmiy mакtabiga sadoqatini yoritish, diniy-madaniy merosni bugungi O'zbekiston jamiyati uchun metodologik asos sifatida baholashga yo'naltirilgan. Jumladan, "Yangi O'zbekiston taraqqiyotida diniy-ma'naviy merosning o'rni" kabi nashrlarda uning ilmiy qarashlari, mazhabiy barqarorlikka qo'shgan hissasi, islom ilmlarining tanazzuli davrida yozgan asarlari e'tibor markaziga olingan. Tadqiqotlarda Kavsariy asarlarining asosiy yo'nalishlari hisoblangan aqidaviy tahkimot, raddiya uslubi, bid'atlarga qarshi qat'iy ilmiy bahslar, fiqhiy tafsiliy izohlar batafsil ochib beriladi. Bu yondashuvlar orqali u nafaqat tarixiy shaxs, balki zamonaviy musulmon ijtimoiy tafakkurining metodologik asosini yaratgan olim sifatida talqin qilinmoqda.

Milliy axborot platformalarida, xususan Muslim.uz, Oliymahad.uz va Aniq.uz portallarida chop etilgan maqolalarda esa Kavsariyning hayoti, ilmiy sayohatlari, siyosiy ta'qiblar natijasida darbardarlikka uchragani yoritib beriladi.

Muhammad Zohid al-Kavsariyga oid bu kabi tadqiqotlar, ularning mazmuniy va metodologik tahlili shuni ko'rsatadiki, u faqat tarixiy fiqhshunos emas, balki o'z davrining diniy ixtiloflariga qarshi ilmiy asoslangan javob bera olgan va islom tafakkurining yangilanishi uchun fidokorona xizmat qilgan mujaddid allomadir. Uning hayoti, ilmiy pozitsiyasi va asarlari haqida olib borilgan tadqiqotlar nafaqat tarixiy bilish uchun, balki bugungi dinshunoslikda, ayniqsa, e'tiqodiy barqarorlik va aqidaviy aniqlikni ta'minlash yo'lida zarur bo'lgan ilmiy manba sifatida qadrlanishi lozim.

Munozara. Shayx Abu G'uddanining yozishicha Zohid Kavsariy yoshlik chog'larida bir o'limdan qolgan. Hijriy 1336-yilda u Kastomonu shahridan Istanbulga qaytmoqchi bo'ladi. Lekin kuchli qor yog'ayotganligi sababidan quruqlikdan emas, dengiz orqali ketishga majbur bo'ladi. Kavsariy Eregli shahriga (Konya viloyati) yetib borib kemani almashtiradi va Dushche shahrining (Turkiya shimoli-g'arbidagi shahar) Akcharshehir portiga suzadi. Akcharshehir qirg'ogiga yaqin qolganida dengizda to'lqin yuzaga kelib, kemasi ag'darilib ketadi. Olim kitoblari bilan birga suvga yiqiladi. Qirg'oqdagi ikki yosh yigit bu holatni ko'rib yordamga kelishadi, arqonlar bilan suvga tushib ketganlarni qutqarib olishadi. Ularning orasida xushsiz holatdagi Zohid Kavsariy ham bor edi. Uning o'ziga kelishiga bir necha kun vaqt ketadi. Shayx Abu G'udda imom Kavsariyning ushbu voqeа tufayli yo'qotgan kitoblari uchun juda ko'p afsus chekkanini keltiradi. Chunki bu kitoblar orasida VI-VII asrlarga oid qo'lyozmalari ham bor edi. Kavsariy bu manbalarni sayohatlarida doimo o'zi bilan olib yurgan. Shuningdek Ibn Hajar al-Haytamiyning Imom Abu

Hanifa rahimahullohning fazilatlari haqidagi qo'lyozmasi, "Aqida at Tahoviya" kitobi ham bo'lib, unga turli izohlar ilova qilingan edi. Bu manba o'zining go'zal xati bilan mashxur bo'lgan alloma Ibn Adim tomonidan qayta yozilgan edi. Bundan tashqari qimmatbaho buyumlar va ko'plab boshqa qo'lyozmalar ham suvga g'arq bo'lgandi.

Imom Kavsariy fiqh ilmini otasidan, shuningdek, muhaddis Ibrohim Hakka (vafoti hijriy 1345-yil), shayx Zaynul-Obidin al-Alsuniy (vafoti 1336-hijriy) dan o'rgangan. Otasi esa fiqh ilmini muhaddis Ahmad Diyoudin al-Kamushxonaviy an-Naqshbandiydan (vaf. 1311-hijriy), va hadis korsatkichlari to'plami muallifi Ramuz al-Ahadisdan olgan. Ushbu ustozlar silsilasi tobe'inlardan Alqama ibn Qays va Aburahmon ibn al Asvat orqali sahobiy Abdulloh ibn Mas'udga, as Sulamiy orqali Ali ibn Abu Tolibga borib taqaladi. Shunigdek Zohid Kavsariy dastlabki ilmlarni ham otasidan olgan. So'ngra Duzjadagi Rushdiya maktabida muftiy Husayn Vajih afandi qo'lida davom ettirgan. 1893-yil Istanbulga borib, u yerda Qoziaskar Hasan afandi Dorul hadis madrasasida ta'lim olgan. U madrasa hamda Fotih masjidida tashkil etilgan ko'plab ilmiy majlislarda ishtirok etgan. Kavsariyning ta'kidlashicha, uning ilmiy qarashlarining shakllanishida Ali Zaynulobidin afandi va Ibrohim Haqqi afandilarning ta'siri katta bo'lgan. U Istanbulda o'n yil ta'lim olib, 1904-yil madrasani tamomlagan, 1906-yil esa darsiom unvoniga erishgan. Zohid Kavsariy Fotih masjidida mudarrislik faoliyati davomida madrasalarni isloh qilish uchun tuzilgan komissiya tarkibiga kiritilgan. U Kastamonu shahrida ochilgan yangi madrasada ham uch yil xizmat qilgan. Kavsariy birinchi jahon urushidan keyin Sulaymoniyada madrasatul mutaxassisin mudarrisligiga tayinlangan. 1919-yil shayxulislom vakilligi maqomi bo'lgan dars vakolati lavozimiga tayinlangan, biroq bir muddat o'tib ushbu vazifadan ozod etilgan.

Zohid Kavsariy hayoti davomida Ittihad va Taraqqiy jamiyatiga mansub davlat, siyosat va fikr odamlariga muxolif bo'lib yashagan. U 1922-yil o'zini ozodlikdan mahrum etish haqida qaror chiqarilganini eshitgach, Misrga yo'l oldi. Avval Iskandariyaga, so'ngra Qohiraga o'tdi. Iskandariyadan Bayrutga, u yerdan Shomga bordi. Shomda Dorul kutub az-Zohiriya kutubxonasida qo'lyozma asarlar ustida tadqiqotlar olib bordi.

1926-yil Qohiraga qaytib, al-Azharda tahsil oladigan turk talabalari yashaydigan Taqiyiyat al-Atrok Abu az-Zahab nomli takkada istiqomat qila boshladi. 1928-yil ilmiy talabida ikkinchi bor Shomga safar qilgan bo'lsa-da, u yerda o'ziga munosib davra topa olmay, keyingi yil yana Qohiraga qaytdi. Qohirada Dijviy, Muhammad ibn Ja'far Kattoniy va Ahmad Rafi' Tahtoviy kabi olimlardan islom ilmlari bo'yicha ijoza oldi. Biror daromad manbai bo'lmagani sababli moddiy qiyinchiliklarga duch kelishiga qaramay, taklif etilgan yordamlarni qabul qilmagan. Turkcha xujjatlarni arab tiliga tarjima qilish maqsadida Dor al-muhofazat al-Misriya idorasi tomonidan o'tkazilgan imtihondan muvaffaqiyatli o'tib, maosh olib ishlay boshladi. Bu orada oilasini

Istanbuldan olib keltirdi. U Istanbulda ekan vaqtida o‘g’li va bir qizi vafot etgan bo‘lib, Qohiraga ayoli va ikki qizi keldi. Qizlaridan Saniha 1934-yilda, Maliha esa 1947-yilda Qohirada vafot etdi.

Kavsariy Qohirada yashagan vaqtida bir tomondan o‘z uyini madrasaga aylantirib, talaba yetishtirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ko‘plab islom ilmlariga oid asarlarning ilmiy nashrini amalga oshirish bilan mashg’ul bo‘ldi. Asosan Misr, Yaman, Hindiston, Pokiston, Indoneziya, Malayziya, Suriya, Iraq va Turkiya mamlakatlaridan kelgan talabalarga ijoza berdi. Abdulhamid Kutubiy Misriy, Ahmad Avang Husayn, Alasoniyalik Jamol O‘gut, Abdulfattoh Abu G’udda, Ahmad Hayri Posho, Muhammad Rashod Abdulmuttalib, Abul Fazl ibn Siddiq, Ali Ulviy Kuruju, Mehmed Ehson Afandi, Mustafo Runyun va Muhammad Husayn uning shogirdlaridan hisoblanadilar. Shu orada Misrdagi reformistik harakatlarga qarshi kayfiyatda bo‘lgani sababli uni mamlakatdan chiqarib yuborishga urinishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, shayx Abdulmajid Sinduniy va bir muddat vaqf ishlari vaziri bo‘lgan al-Azhar shayxi Mustafo Abdurazzoqning aralashuvi bilan bundan qutulib qoldi. Ilmiy faoliyati va nashrlari bilan e’tibor qozongan Kavsariy Misrdagi ilm ahli orasida alohida mavqega ega bo‘ldi. Al-Azharda o‘qigan shogirdlari vositasida Hindiston va Pokistondagi olimlar bilan aloqa o‘rnatib, keng ilmiy doira yaratdi. 1950-yil Demokratik partianing hokimiyat tepasiga kelishi bilan Turkiyaga qaytishni umid qilgan bo‘lsa-da, turli xastaliklar bilan ovora bo‘lib qoldi. Fotih masjidida professor sifatida ish boshlagan Zohid Kavsariy madrasalarni obodonlashtirish uchun tuzilgan komissiyaga tayinlangan; Ittifoq va taraqqiyot qo‘mitasiga qarshi bo‘lishiga qaramay, u ta’lim bo‘yicha yangi qarorlar qabul qilishga imkon berdi. 1913-yilda Istanbul professorligi imtihonini topshirdi. Dorulfununda ochilgan fiqh muallimining imtihonidan muvaffaqiyatli o‘tgan bo‘lsa-da, uning tayinlanishi ittifoqchilar tomonidan to‘silib, Kastamonuda yangi ochilgan madrasani tashkil etish vazifasi topshirildi. Bu yerda uch yil qolib, dengiz orqali Istanbulga qaytayotganda qayig‘i ag‘darilib ketishi oqibatida cho‘kib ketish xavfidan qutulgan. Birinchi jahon urushidan keyin Darushshafakada bir oylik professorlikdan so‘ng Sulaymoniyadagi Medresetu'l-Mütehassisin professori etib tayinlandi. Bu orada u “Majlis” a’zosi, Sulaymoniya madrasasi vakili etib saylandi. 1919-yil 15-avgustda u shayxul-islom noibi bo‘lgan ma’ruza vazifasiga tayinlandi. Sulton III. Biroz vaqt o‘tgach, u Mustafo qudirgan madrasaning vazir Ahmad Tavfiq posho boshchiligidagi jamiyat tomonidan buzib tashlanishiga qarshi chiqqani va madrasalarning unga aloqadorligi sababli sudga da’vo qilgani uchun o‘qituvchilik vazifasidan chetlashtirildi.

Zohid Kavsariy butun umri davomida davlatga, siyosatga va Ittifoq va taraqqiyot qo‘mitasiga mansub ziyolilarga qarshi bo‘ldi. 1922-yilning oxirlarida bir do‘sti ko‘chada unga hibsga olish orderi chiqqanini aytganidan so‘ng, bir necha kundan keyin Iskandariyaga, keyin esa Qohiraga yetib bormasdan, oilasiga ham xabar bermay dengiz orqali Misrga yo‘l oladi. Iskandariyadan Bayrutga, u yerdan Damashqqa yo‘l oldi (1923). Damashqdagi Doru'l-kütübi'z-

Zahiriyyadagi qo'lyozmalarni o'rgangan. 1926 yilda Qohiraga qaytib keldi va Azharda tahsil olayotgan turk talabalari qoladigan Tekiyyetü'l-Etrak Ebü'z-Zeheb nomli lojada istiqomat qila boshladi. U 1928-yili ilmiy sayohat maqsadida ikkinchi marta Damashqqa borgan bo'lsa-da, o'ziga munosib muhit topa olmay, keyingi yili Qohiraga qaytib keladi. Uning xotini va ikki qizi Qohiraga keldi, chunki u Istanbulda bo'lganida o'g'li va qizi vafot etdi; Qizlaridan biri Seniha 1934 yilda, Meliha esa 1947-yilda Qohirada vafot etgan. Hadis ilmida ham Zohid Kavsariy ustozlarining yigirmaga yaqin hadis kitoblarini o'qib, rivoyat qilish huquqini olgan. Abu Hanifaning hadis tushunchasiga qarshi bo'lgan tanqidlarga javoban yozgan Te'nîbü'l-haṭîb va en-Nüketü't-tarîfe nomli asarlari katta aks-sadolar uyg'otdi, ular haqida raddiyalar yozildi va ba'zilariga javob berdi. Kavsariy esa shuncha qiyinchilik va och qolishlik bilan ham «maxtutot» ilmlari bilan shug'ullanishda davom etaverdi. U ochlik azobini unutish uchun ertalabdan Zohiriya maktabasiga yo'l olar va u yerda kechgacha qolib ketar, kech kirganda esa ochligini ozgina unutganday bulib yana uyiga qaytar va shu holatda tunlarini o'tkazar edi. Shunday kunlardan birida una Turkiyaga pul topish uchun qaytib ketgan o'rtog'idan pochta orqali pul keldi. U mana shunday ilm talabida boshidan o'tkazgan og'ir kunlarini ko'p eslab shogirdlariga aytib berar edi.

U ilm izlab Misrga kelganidan keyin do'stlari Shomning ob-havosi yaxshilagini aytib shu yerlarga kelishligini aytganida ham u Qohiradagi ilmiy muhit menga afzalroq, deb u shu yerlarni ixtiyor qilganligini aytib ularga rad javobini berdi. Umrining oxirigacha shu yerda qolib ilm yo'llini maxkam tutdi. Hanafiy olimlarini har xil tanqidiy fikrlardan himoya qilish bilan birga ularni yo'qlab tarjimai xollari haqida kitob va maqolalarida aytib o'tar edi. Bunga misol qilib uning hanafiy olimlaridan bo'lgan ikki imom, Hasan ibn Ziyod va Muhammad ibn Shujo'lar haqida yozigan tarjimai hollarini alohida keltirib o'tish mumkin.

Bu kitobni yozishiga asosiy turtki bo'lgan narsa "Tarixul Xotib" va "Lisonu ibn Hajar" kitoblarida keltirilgan u ikki buyuk hanafiy olimlariga nisbatan aytilgan ayblardan himoya qilgan holda va ularning bu kamsitishlardan holi ekanligini bayon qilish maqsadida "Imtino' bisiyroti imamayni Hasan ibn Ziyod va Muhammad ibn Shujo'" kitobini yozgan. Kavsariy "Husnut-taqoziy fi siyrati Imam Abu Yusuf" asrida shunday deydi: "Abu Hafs Kabir va Abu Sulaymon Juzjoniy Imom Muhammad kitoblarining rivoyatida asos hisoblanadilar".

Xulosa. Zohid Kavsariy o'z davrining yirik ulamolaridan biri sifatida nafaqat boy ilmiy merosi, balki diniy-ma'naviy yangilanishga qo'shgan hissasi bilan ham ajralib turadi. Ilm ahli tomonidan uning "mujaddid", ya'ni diniy yangilovchi sifatida e'tirof etilishi bejiz emas. Bu e'tirof, avvalo, mujaddidlik tushunchasining mazmuni bilan chambarchas bog'liqdir. Mujaddidlik islam tafakkurida diniy hayotni asl manbalar asosida qayta ko'rib chiqish, tarixiy jarayonlar ta'sirida yuzaga kelgan tushunmovchiliklarni bartaraf etish, hamda iymon-e'tiqodni asliy holatida, sof va buzilmagan shaklda namoyon qilishdek muhim vazifalarni o'z ichiga oladi.

Allomaning faoliyatida aynan ana shu tamoyillar ustuvor o‘rin egallaydi. U islom aqidasi, fiqh va hadis ilmi sohalarida yirik asarlar yozib, an’anaviy diniy bilimlarni zamonaviy muhitda qayta sharhlashga harakat qilgan. Ayniqsa, sunnatni hayotga tatbiq etish, unga muvofiq yashash va bid’atlardan xoli islomiy hayotni qaror toptirish yo‘lida olib borgan ilmiy va amaliy faoliyati uning mujaddidlik maqomini tasdiqllovchi asosiy omillardan biridir.

Shunday ekan, Zohid Kavsariyning ilmiy-ma’rifiy merosi hozirgi davrda ham katta ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari nafaqat tarixiy manba sifatida, balki zamonaviy musulmon jamiyatlarida diniy ongni uyg‘otish, islomiy tafakkurni jonlantirish va sof e’tiqodiy qadriyatlarni tiklashda muhim metodologik asos bo‘la oladi. Zero, mujaddidlik bu – yangilik kiritish emas, balki asl haqiqatni tiklash yo‘lidagi izchil ilmiy va ruhiy harakatdir. Zohid Kavsariy esa bu yo‘lning sobitqadam va yetuk namoyandalaridan biri sifatida tarixda munosib iz qoldirgan allomadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mehmet Emin Özafshar. “Muhammad Zohid al-Kevseri: Uning hayoti”
2. Abdulloh as-Suduniy. “Toju at-tarajim fi tabaqoti al-hanafiya”
3. Muhammad ash-Shahrosoniy. “Dinlar va mazhablar haqida kitob”
4. Ahmad Hayriy. “al-Imom al-Keyseriy”